

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2025
TABIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Sh.S.Abdukarimov, A.X.Makamov, Sh.U.Boboxujayev, M.F.Sanamyan, Z.T.Buriev O'simliklarda xromosomasi almashgan yoki xromosoma segmentlari almashgan liniyalarni olish va ularning ahamiyati	114
M.A.Jumanov, R.R.Raxmonov O'zbekistonda ovlashga ruxsat etilgan qushlarning sistematik tahlili va Buxoro viloyatida uchrashi haqida ma'lumotlar	120
A.A.Ahmadjonov, A.T.Turdaliyev, I.I.Musayev, Y.H.Muhammadov Sug'oriladigan tuproqlar va gilosda biomikroelementlar biogeokimyosi	127
A.N.Yusupov, M.S.Ayubov, X.A.Ubaydullayeva, B.O.Mamajonov, N.Sh.Obidov, A.A.Murodov, Z.H.Bashirxonov, S.A.Abdullaev, F.I.Babadjanova Integrativ RNA-seq tahlili asosida soya (<i>Glycine max</i>) va tok (<i>Vitis vinifera</i>) o'simliklarida abiotik stressiga chidamlilik bilan aloqador genlarni aniqlash	134
D.E.Usmanov, Sh.S.Abdukarimov, B.M.Sobirov, A.A.Azimov, A.T.Abdug'afforov, D.S.Juraqulov, Z.T.Buriev G'o'za (<i>G.hirsutum</i> L.) <i>GHFHY3/FAR1</i> genlar oilasi vakillarini tavsiflash.....	143
D.E.Usmanov, Sh.S.Abdukarimov, B.M.Sobirov, A.A.Azimov, A.T.Abdug'afforov, D.S.Juraqulov, Z.T.Buriev G'o'za (<i>Gossypium spp</i>) turlari <i>GHFHY3/FAR1</i> genlar oilasi vakillarini solishtirma bioinformatik tahillar yordamida aniqlash	153
A.A.Sharifjonov, D.E.Usmanov, Sh.S.Abdukarimov, B.M.Sobirov, A.T.Abdug'afforov, D.S.Juraqulov, Z.T.Buriev, Sh.R.Xusanbayeva A.A.Sharifjonov G'o'za (<i>G.hirsutum</i> L.) turi <i>GHFHY3/FAR1</i> genlar oilasi vakillari Cis-element hududlarini o'rganish.....	158
S.D.Dadayev, D.A.Paluanizayeva Qoraqalpog'iston sharoitida qo'ylar gelmintlari faunasi va ularning sistematik holati	164
Sh.Q.Yuldasheva, M.I.Teshaboyeva Nok zararkunandalariga qarshi kimoviy kurashning ta'siri	170
Sh.Q.Yuldasheva, A.Q.Xamidov Farg'ona vodiysida temirchaklar (Tettigoniodea)ni tarqalishi va unga ta'sir etuvchi omillar	174
N.S.Abdunazarov, B.D.Mamarasulov <i>Streptomyces spectabilis</i> fermentatsiyasida muhit sharoitlarini ahamiyati	178
G'.Yuldashev, Q.S.Maxsudov Janubiy Farg'ona gipsli bo'z tuproqlarida namlik bosimining o'zgarishi	182
J.S.Sattarov, S.Q.Mahammadiyev, Sh.D.Quramboyeva Piskent tumanining sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarida granulometrik tarkibi xususiyatlari.....	188
Sh.Sh.Qosimova, B.D.Mamarasulov <i>Streptomyces</i> sp. izolyatining antibiotikka chidamli klinik shtammlarga nisbatan antimikrob faolligini baholash	194
Z.A.Yusupova Shohimardonsoy havzasi dorivor o'simliklari	199

QISHLOQ XO'JALIGI

D.E.Djo'rayeva, M.T.Isag'aliyev Dorivor godji (<i>Lycium barbarum</i> L.) ninsya navi urug'lari unuvchanligini baholash	206
T.T.Усманов, Н.И.Халилова, А.А.Ибрагимов, М.А.Мамасолиева Влияние кремниевых препаратов на всхожесть и биохимическую активность проростков хлопчатника сорта Бухара-8 в условиях изменения климата и засоления почвы.....	211
S.Q.Zakirova, Z.Z.Abdushukurova Taqirsimon tuproqlarning tuz rejimi va uni boshqarish.....	218
O.O.Mamatqulov, M.A.G'oziyev Turli ko'chat qalinligi va defoliant me'yorlarini o'rta tolali S-7303 g'o'za navi chigit sifatiga ta'sirini baholash	222



UO‘K: 591.5:597/599:639.1(575.146)(043.3)

**O‘ZBEKISTONDA OVLASHGA RUXSAT ETILGAN QUSHLARNING SISTEMATIK TAHLILI
VA BUXORO VILOYATIDA UCHRASHI HAQIDA MA’LUMOTLAR****СИСТЕМНЫЙ АНАЛИЗ ПТИЦ, РАЗРЕШЕННЫХ ДЛЯ ОХОТЫ В УЗБЕКИСТАНЕ, И
СВЕДЕНИЯ ОБ ИХ ВСТРЕЧАХ В БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ****SYSTEMATIC ANALYSIS OF BIRDS PERMITTED FOR HUNTING IN UZBEKISTAN AND
INFORMATION ABOUT THEIR SIGHTINGS IN THE BUKHARA REGION****Jumanov Muratbay Arepbayevich¹** ¹Qoraqalpoq davlat universiteti professori, biologiya fanlari doktori**Raxmonov Rashid Raximovich²** ²Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti, b,f,f,d (PhD)**Annotatsiya**

Maqolada O‘zbekistonda ovlashga ruxsat etilgan qushlarlar sistematikasi sinf, turkum, oila va turlar kesimida sistematik jihatdan tahlil qilingan. O‘rganishlar natijasida O‘zbekistonda ovlashga ruxsat etilgan qushlar sinfining 8 ta turkum, 12 ta oila va 45 tur vakillari aniqlandi. O‘zbekistonda rasman ovlashga ruxsat etilgan ovlanadigan qushlarning Buxoro viloyatida uchrashi xususiyatlari o‘rganilganda ularning 45 turgan 42 turi viloyat tabiatida uchrashi qayd etildi. Tadqiqot ishimizda “O‘zbekistonning cho‘l zonasida ovlanadigan hayvon turlarining faunasi, ekologiyasi va ahamiyati”ni o‘rganish hisoblanadi. Dunyo miqyosida biologik xilma-xillikning muhim tarkibiy qismi sanalgan hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish masalasiga bugungi kunda alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa hayvonot dunyosidan ov qilish maqsadida keng va ba’zan nooqilona foydalanish, ov xo‘jaliklarini yuritish sohasidagi mavjud muammolar ko‘pchilik hollarda turlarning qirilib ketishiga yoki sonini kamayishiga sabab bo‘lmoqda, ba’zan ular noyob yoki yo‘qolib ketish xavfi ostidagi turlarga aylanmoqda. Shunga ko‘ra, mazkur masalalarni o‘rganish, ularni hal qilish bo‘yicha tegishli tavsiyalar ishlab chiqish hayvonlarni muhofaza qilish, ulardan barqaror foydalanish, ovchilik xo‘jaliklari yuritishni tartibga solish hamda aholining iqtisodiy, ijtimoiy farovonligini oshirishda nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Аннотация

В статье системно проанализирована систематика птиц, разрешённых к охоте в Узбекистане, по классам, отрядам, семействам и видам. В результате исследований выявлено 8 отрядов, 12 семейств и 45 видов птиц, разрешённых к охоте в Узбекистане. При изучении особенностей распространения охотничьих птиц, официально разрешённых к охоте в Узбекистане, в Бухарской области, из 45 видов, 42 были зарегистрированы в природе региона. Целью нашей научно-исследовательской работы является изучение «фауны, экологии и значения охотничьих видов в пустынной зоне Узбекистана». Сегодня особое внимание уделяется охране и рациональному использованию животного мира, являющегося важной составляющей мирового биоразнообразия. В частности, повсеместное, а порой и нерациональное использование диких животных в охотничьих целях, а также существующие проблемы в сфере охотничьего хозяйства во многих случаях приводят к исчезновению или сокращению численности видов, порой превращая их в редкие или находящиеся под угрозой исчезновения. Соответственно, изучение этих проблем и разработка соответствующих рекомендаций по их решению имеет теоретическое и практическое значение для охраны животных, их устойчивого использования, регулирования охотничьего хозяйства, повышения экономического и социального благополучия населения.

Abstract

The article systematically analyzes the taxonomy of birds permitted for hunting in Uzbekistan by classes, orders, families and species. As a result of the research, 8 orders, 12 families and 45 species of birds permitted for hunting in Uzbekistan were identified. When studying the distribution features of game birds officially permitted for hunting in Uzbekistan, in the Bukhara region, out of 45 species, 42 were registered in the nature of the region. The purpose of our research work is to study the “fauna, ecology and importance of game species in the desert zone of Uzbekistan.” Today, special attention is paid to the protection and rational use of wildlife, which is an important component of global biodiversity. In particular, the widespread and sometimes irrational use of wild animals for hunting purposes, as well as existing problems in the field of hunting, in many cases lead to the disappearance or reduction in the number of species, sometimes turning them into rare or endangered species.

Kalit so'zlar: Buxoro, Navoiy, Xorazm, Qoraqalpoq, Yovvoyi, Erkak, urg'ochi, iqtisodiy, biologik xilma-xillik, muhofaza qilish, ovchilik xo'jaliklari.

Ключевые слова: Бухарское, Навоийское, Хорезмское, Каракалпакское, Дикое, Самец, Самка, Хозяйственное, Биоразнообразие, Охрана, Охотничьи хозяйства.

Key words: Bukhara, Navoi, Khorezm, Karakalpak, Wild, Male, Female, Economic, Biodiversity, Protection, Hunting grounds.

KIRISH

Respublikamizda biologik xilma-xillikni saqlash, hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishga hamda dasturiy chora-tadbirlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar natijasida soni kamayib ketayotgan turlarga muhofaza maqomi berildi, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydoni kengaytirilmoqda, hayvonot dunyosini muhofaza qilishda jamoatchilik nazoratidan keng foydalanish imkoniyatlari yaratildi va ov turizmini amaliyotga joriy etish boshlandi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida «ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral-xomashyo, sanoat, qishloq xo'jaligi, turistik va mehnat salohiyatidan kompleks hamda samarali foydalanishni ta'minlash» vazifasi belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqib, respublikamizning past tekisliklarida joylashgan ovchilik xo'jaliklari (Buxoro, Navoiy, Xorazm va Qoraqalpoq) da ovlanadigan hayvonlar faunasini, bioekologik xususiyatlarini, ulardan barqaror foydalanishni o'rganish va asoslashga, ov obyektlari hamda ularning yashash muhitlariga bo'ladigan antropogen omillarning ta'sirini aniqlash va baholashga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari muhim ahamiyat kasb etadi.[3]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Har bir hududning zoogeografik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ovlanadigan hayvonlarning tur tarkibi, ovlanish hajmlari, ov qilish va ov xo'jaligini yuritish hamda ovlanadigan turlardan barqaror foydalanishga oid tadqiqotlar xorijlik olimlar C.D. Fitzgibbon (1995), A. Gammell (1999), L.Munro (1999) G. Griffin (2000), F. Barends (2002), Ph. Chardonnet (2002) va boshqalar tomonidan olib borilgan.[3;3-10 b]

MDH davlatlarida ov qilish va ov xo'jaligini yuritishning rivojlanish tarixi, havaskorlik va sanoat ovining o'ziga xos xususiyatlari, ovchilik sohasidagi muammolar, ovchilik xo'jaliklarining antropogen transformatsiyasi hamda ov turizmi masalalari bo'yicha V.F. Gavrin (1972), N.N. Grakova (1973), S.A. Larin (1974), V.V. Melnikov (1992), V.A. Chashuxin (2006), V.N. Bolshakov (2012) tomonidan keng qamrovli tadqiqotlar amalga oshirilgan.[1; 52 b]

O'zbekistonda ovlashga ruxsat etilgan ayrim hayvon turlarining biologiyasi, ekologiyasi va muhofazalanishiga doir tadqiqotlar N.A. Zarudniy (1915), G.I. Ishunin, X.S. Salixbayev (1963, 1984), D.Yu. Kashkarov (1965), T.Z. Zaxidov (1971), M.G. Mitropolskiy, O.V. Mitropolskiy va V.O. Sudarev (2011, 2014), G.F. Goncharov (2015), A.A. Ataxodjayev va V.O. Sudaryev (2017), Y.I. Ametov (2018) R.R.Raxmonov (2020) va boshqalar tomonidan olib borilgan. Biroq, yuqorida qayd etilgan tadqiqotlar ov qilish, ovchilik xo'jaliklarini yuritishning zamonaviy va ilg'or tajribalarini joriy etish hamda ov qilish, ovlanadigan turlardan barqaror foydalanish sohasidagi mavjud muammolarni hal etish va asoslashga doir batafsil ma'lumotlarni bera olmaydi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonning cho'l zonasidagi ovlanadigan hayvonlarning tur tarkibi, ekologiyasi va barqaror foydalanilishini o'rganish ovchilik xo'jaliklarini yuritishni tartibga solish, ov turizmini rivojlantirish hamda ovchilik xo'jaliklarining iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.[2; 27-34 b]

O'zbekistonning cho'l zonasida ovlanadigan hayvon turlarining faunistik tarkibi, ahamiyati, sonini va ekologik xususiyatlarini aniqlash hamda barqaror foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur maqola obyekti sifatida O'zbekistonning cho'l zonasi (Buxoro, Navoiy, Xorazm va Qoraqalpoq) da uchrovchi ovlanadigan hayvon turlari va ularning yashash muhiti sifatida ovchilik xo'jaliklari olingan.

O'zbekistonning cho'l zonasida joylashgan ovchilik xo'jaliklarida ovlanadigan hayvon turlarining faunasi, ularning tarqalishi, soni, bioekologik xususiyatlari, antropogen omillarning hayvonot dunyosiga ta'siri, turlarni muhofaza qilish va barqaror foydalanish chora-tadbirlarini takomillashtirishdan iborat.

O'zbekistonning cho'l zonasida ovlanadigan umurtqali hayvonlar faunasini taksonomik tahlil qilish;

O'zbekistonning cho'l zonasida ovlanadigan umurtqali hayvon turlarining ovchilik xo'jaliklari bo'yicha tarqalishi va son dinamikasi ochib berish;

O'zbekistonning cho'l zonasida ovlanadigan hayvon turlarining bioekologik xususiyatlari, muhofazalanishini va foydalanilishini aniqlash;

O'zbekistonning cho'l zonasidagi suv havzalarida ovlanadigan turlarning yashash muhiti sifatidagi o'rni va cho'l ekotizimlari bioxilma-xilligini saqlashdagi ahamiyati ochib berish;

O'zbekistonning cho'l zonasida ovlanadigan turlarga va ularning yashash muhitlariga ta'sir etuvchi antropogen omillar va ularning ta'sir etish darajalari aniqlash;

O'zbekistonda ovlashga ruxsat etilgan qushlarlar sistematikasi sinf, turkum, oila va turlar kesimida sistematik jihatdan tahlil qilin va quyida (1 jadval) keltirildi.

1 jadval

O'zbekistonda rasman ovlashga ruxsat berilgan ovlanadigan qushlarning sistematik tahlili

Turlarning ilmiy nomlanishi	Turlarning rus tilidagi nomlanishi	Turlarning o'zbek tilidagi nomlanishi
Turkum: Pelecaniformes Beslonogie Kurakoyoqlilar		
Oila: Phalacrocoracidae Баклановые Qoravoylar		
<i>Phalacrocorax carbo</i>	<i>Bolshoy baklan</i>	<i>Katta qoravoy</i>
Turkum: Ciconiiformes Aistoobraznye Laylaksimonlar		
Oila: Ardeidae Saplevnye Qarqaralar		
2 <i>Botaurus stellaris</i>	<i>Bolshaya vyр</i>	<i>Katta ko'lbuqa</i>
Turkum: Anseriformes Guseobraznye G'ozsimonlar		
Oila: Anatidae Utinnye O'rdaklar		
3 <i>Anser anser</i>	<i>Seryy gus</i>	<i>Kulrang g'oz</i>
4 <i>Tadoma ferruginea</i>	<i>Ogar</i>	<i>Angirt</i>
5 <i>Tadorna tadorna</i>	<i>Peganka</i>	<i>Suralay g'oz</i>
6 <i>Anas platyrhynchos</i>	<i>Kryakva</i>	<i>Yovvoyi o'rdak</i>
7 <i>Anas crecca</i>	<i>Chirok-svistunok</i>	<i>Churrak</i>
8 <i>Anas strepera</i>	<i>Seraya utka</i>	<i>Qo'ng'ir o'rdak</i>
9 <i>Anas penelope</i>	<i>Sviyaz</i>	<i>Olaqanotli suqsur</i>
10 <i>Anas acuta</i>	<i>Shiloxvost</i>	<i>Suqsur</i>
11 <i>Anas querquedula</i>	<i>Chirok-treskunok</i>	<i>Katta churrak</i>
12 <i>Anas clypeata</i>	<i>Shirokonoska</i>	<i>Suqsun</i>
13 <i>Netta rufina</i>	<i>Krasnonosyy pyrok</i>	<i>Olmabosh</i>
14 <i>Aythya ferina</i>	<i>Krasnogolovyy pyrok</i>	<i>Qizilbosh</i>
15 <i>Aythya fuligula</i>	<i>Xoxlataya chernet</i>	<i>Haydarkokil</i>
16 <i>Bucephala clangula</i>	<i>Obyknovennyy gogol</i>	<i>Xitoy o'rdagi</i>
17 <i>Mergus merganser</i>	<i>Bolshoy kroxal</i>	<i>Katta cherag</i>
Turkum: Galliformes Kuroobraznye Tovugsimonlar		
Oila: Phasianidae Fazanovye Qirg'ovullar		
18 <i>Tetraogallus himalayensis</i>	<i>Gimalayskiy ular</i>	<i>Himoloy ulari</i>
19 <i>Alectoris chukar</i>	<i>Kekliik</i>	<i>Kaklik</i>
20 <i>Perdix perdix</i>	<i>Seraya kuropatka</i>	<i>Chil</i>
21 <i>Ammoperdix griseogularis</i>	<i>Pustynnaya kuropatka</i>	<i>Cho'l chili</i>
22 <i>Perdix dauurica</i>	<i>Borodataya kuropatka</i>	<i>Soqoli chil</i>
23 <i>Coturnix coturnix</i>	<i>Perepel</i>	<i>Bedana</i>
24 <i>Phasianus colchicus</i>	<i>Obyknovennyy fazan</i>	<i>Qirg'ovul</i>
Turkum: Gruiformes Juravleobraznye Turnasimonlar		

Oila: Rallidae Pastushkovye Suvmoshaklar			
25	<i>Rallus aquaticus</i>	<i>Pastushok</i>	<i>Suvmoshak</i>
26	<i>Gallinula chloropus</i>	<i>Kamyshnisa</i>	<i>Suv tovug'i</i>
27	<i>Fulica atra</i>	<i>Lyisuxa</i>	<i>Qashqaldoq</i>
Turkum: Charadriiformes Rjankoobraznye Rjankasimonlar			
Oila: Burhinidae Avdotkovye Yilqichilar			
28	<i>Burhinus oediconemus</i>	<i>Avdotka</i>	<i>Yilqichi</i>
Oila: Charadriidae Rjankovye Rjankalar			
29	<i>Vanellus vanellus</i>	<i>Chibis</i>	<i>Qizqush</i>
30	<i>Vanellus leucura</i>	<i>Beloxvostaya pigalisa</i>	<i>Suvtorg'oq</i>
Oila: Scolopacidae Bekasovye Loyxo'raklar			
31	<i>Gallinago gallinago</i>	<i>Bekas</i>	<i>Loyxo'rak</i>
32	<i>Scolopax rusticola</i>	<i>Valdshnep</i>	<i>O'rmon loyxo'ragi</i>
Turkum: Columbiformes Golubeobraznye Kaptarsimonlar Pterocletes			
Oila: Pteroclididae Ryabkovye Bulduruqlar			
33	<i>Pterocles orientalis</i>	<i>Chernobryuxiy ryabok</i>	<i>Qorabovur</i>
34	<i>Syrrhaptes paradoxus</i>	<i>Sadja</i>	<i>Suv bulduruq</i>
Oila: Columbidae Golubinye Kaptarlar			
35	<i>Columba livia</i>	<i>Sizyiy golub</i>	<i>Ko'k kaptar</i>
36	<i>Columba palumbus</i>	<i>Vyaxir</i>	<i>Gov kaptar</i>
37	<i>Streptopelia decaocto</i>	<i>Kolchataya gorlisa</i>	<i>Kumri</i>
38	<i>Streptopelia orientalis</i>	<i>Bolshaya gorlisa</i>	<i>Tog' g'urragi</i>
Turkum: Passeriformes Vorobinoobraznye Chumchuqsimonlar			
Oila: Sturnidae Skvorsovye Chug'urchuqlar			
39	<i>Sturnus vulgaris</i>	<i>Obyknovennyy skvores</i>	<i>Chug'urchik</i>
40	<i>Acridotheres tristis</i>	<i>Mayna</i>	<i>Mayna</i>
Oila: Corvidae Vranovye Qarg'alar			
41	<i>Pica pica</i>	<i>Soroka</i>	<i>Zag'izg'on</i>
42	<i>Corvus monedula</i>	<i>Galka</i>	<i>Zag'cha</i>
43	<i>Corvus frugilegus</i>	<i>Grach</i>	<i>Go'ng qarg'a</i>
44	<i>Corvus corone</i>	<i>Chernaya vorona</i>	<i>Qora qarg'a</i>
45	<i>Corvus cornix</i>	<i>Seraya vorona</i>	<i>Ola qarg'a</i>

O'zbekistonda ovlashga ruxsat etilgan ovlanadigan qushlarning sistematiik jihatdan tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida O'zbekistonda ovlashga ruxsat etilgan qushlar sinfining 8 ta turkum, 12 ta oila va 45 tur vakillari aniqlandi. Ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi vaqtda O'zbekistonda ko'k g'oz va qorabovurlar soni kamayib ketgan. Bizningcha, bu vaziyat ularni rejasiz va ko'p sonda ovlash bilan emas, balki yashash muhitining antropogen transformatsiyasi bilan uzviy bog'liq [2; 34-b.].

O'zbekiston cho'llari yoz oylari jazirama issiq, garimselli shamollari, va yillik yog'in miqdorining kamligi bilan ajralib turadi. Ular mamlakat hududining yarmidan ko'prog'ini egallaydi va Markaziy Osiyoda og'ir yashash sharoitidagi hududlar sanaladi. O'zbekiston cho'llar respublikaning shimoli-g'arbidan cho'zilib, sharqqa tomon asta-sekin qisqarib boradi. Ba'zi hududlarda go'zal vodiylar va vohalar mavjud. Bunday joylarda muhim strategik obyektlarga aylangan tarixiy shaharlari (Buxoro, Navoiy, Xorazm va Qoraqalpog') paydo bo'ldi. Qizilqum cho'llari o'z nomiga monand qizil qumtepa tizmalari bilan qumli va toshloq cho'l erlardan tashkil topgan. Qizilqum cho'llari Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida joylashgan bo'lib, O'zbekiston hududida katta maydonni egallaydi. Shimoli-g'arbdan cho'l Orol dengiziga tutashib, shimoli-sharqda Tyan-Shan tog' tizmalariga etib boradi. Cho'lining maydoni taxminan uch yuz ming kvadrat metrni tashkil qiladi. Sahroda sutemizuvchilar: jayron, dasht mushuklari, qo'shoyoqlar, jayra, tulki, bo'ri, quyon, ko'rshapalaklar yashaydi. Qushlaridan yo'rg'a tuvaloq, burgut, boyqushlarni uchratish mumkin. Toshbaqa ilonlar, kaltakesaklar va boshqa sudralib yuruvchilar cho'lining doimiy vakillaridir.

Cho'lda dam olish uchun ko'plab qadamjolar mavjud. Masalan, Navoiy viloyatida dam olish maskanlarida to'xtab, uylarda yashash, tuya minish, tuya sutini tatib ko'rish mumkin. Buxoro viloyatida tabiiy tuz va qumliklarda salomatlikni qayta ishlash markazi mavjud. U erda sizga tabiiy tuz va qumdan davolovchi va shifobaxsh taomlar tayyorlab berishadi. Xorazmda ham ekoturizm yaxshi rivojlangan bu erda siz baliq ovi sport turidan foydalanib tabiat qo'ynida miriqib xordiq chiqarasiz. Qoraqalpog'iston Respublikasining Mo'ynoq shahriga albatta tashrif buyuring. Shuningdek, Orolqum cho'li orqali Orol dengizi sohiliga chiqish mumkin. U erda siz o'tovlarda yashashingiz, jipda ekskursiya qilishingiz va Orolqum qumlarida ekoturistik turidan bahraman bo'lishingiz mumkin. Ustyurt platosi. O'zbekiston hududidagi sirli va g'ayrioddiy joy mamlakatning Orol dengizi va Amudaryo deltasi oralig'idagi g'arbiy qismini egallaydi.

O'zbekistonning cho'l zonasiga joylashgan, asosan past cho'llar sirasiga kiradigan hududlar Buxoro, Navoiy, Xorazm va Qoraqalpog'iston hisoblanadi. Biz yuqorida bu hududlarning o'ziga xos tabiati haqida ma'lumotlarni keltirib o'tdik. Bularning o'simlik va hayvonot dunyosi deyal bir biriga o'xshash bo'lganligi uchun O'zbekistonda rasman ovlashga ruxsat etilgan ovlanadigan qushlarning Buxoro viloyatida uchrashi xususiyatlarini namuna tariqasida keltirishni joiz topdik. [4; 65-68 b., 5; 9-11 b., 6; 120-124 b] (2 jadval)

2 jadval

O'zbekistonda rasman ovlashga ruxsat etilgan ovlanadigan qushlarning Buxoro viloyatida uchrashi

Turlarning ilmiy, rus va o'zbek tilidagi nomlanishi		Buxoro viloyatida uchrashi
1	<i>Phalacrocorax carbo</i> - Bolshoy baklan - Katta qoravoy	+
2	<i>Botaurus stellaris</i> - Bolshaya vyр - Katta ko'lbuqa	+
3	<i>Anser anser</i> - Serby gus - Kulrang g'oz	+
4	<i>Tadoma ferruginea</i> - Ogar - Angirt	+
5	<i>Tadorna tadorna</i> - Peganka - Suralay g'oz	+
6	<i>Anas platyrhynchos</i> - Kryakva - Yovvoyi o'rdak	+
7	<i>Anas crecca</i> - Chirok-svistunok - Churрак	+
8	<i>Anas strepera</i> - Seraya utka - Qo'ng'ir o'rdak	+
9	<i>Anas penelope</i> - Sviyaz - Olaqanotli suqsur	+
10	<i>Anas acuta</i> - Shiloxvost - Suqsur	+
11	<i>Anas querquedula</i> - Chirok-treskunok - Katta churрак	+
12	<i>Anas clypeata</i> - Shirokonoska - Suqsun	+
13	<i>Netta rufina</i> - Krasnonosyy pyrok - Olmabosh	+
14	<i>Aythya ferina</i> - Krasnogolovyy pyrok - Qizilbosh	+
15	<i>Aythya fuligula</i> - Xoxlataya chernet - Haydarkokil	+
16	<i>Bucephala elangula</i> - Obyknovennyy gogol - Xitoy o'rdagi	+
17	<i>Mergus merganser</i> - Bolshoy kroxal - Katta cherag	+
18	<i>Tetraogallus himalayensis</i> - Gimalayskiy ular - Himoloy ulari	-
19	<i>Alectoris chukar</i> - Keklik - Kaklik	+
20	<i>Perdix perdix</i> - Seraya kuropatka - Chil kaklik	-
21	<i>Ammoperdix griseogularis</i> - Pustynnaya kuropatka - Cho'l chili	+
22	<i>Perdix dauurica</i> - Borodataya kuropatka - Soqoli chil	-
23	<i>Coturnix coturnix</i> - Perepel - Bedana	+
24	<i>Phasianus colchicus</i> - Obyknovennyy fazan - Qirg'ovul	+
25	<i>Rallus aquaticus</i> - Pastushok - Suvmoshak	+
26	<i>Gallinula chloropus</i> - Kamyshnisa - Suv tovug'i	+
27	<i>Fulica atra</i> - Lysuxa - Qashqaldoq	+
28	<i>Burhinus oedicnemus</i> - Avdotka - Yilqichi	+
29	<i>Vanellus vanellus</i> - Chibis - Qizqush	+
30	<i>Vanellus leucura</i> - Beloxvostaya pigalisa - Suvtorg'oq	+


31	<i>Gallinago gallinago</i> – Bekas - Loyxo'rak	+
32	<i>Scolopax rusticola</i> - Valdshnep - O'rmon loyxo'ragi	+
33	<i>Pterocles orientalis</i> - Chernobryuxiy ryabok - Qorabovur	+
34	<i>Syrhaptes paradoxus</i> – Sadj - Suv bulduruq	+
35	<i>Columba livia</i> - Sizy golub - Ko'k kaptar	+
36	<i>Columba palumbus</i> – Vyaxir - Gov kaptar	+
37	<i>Streptopelia decaocto</i> - Kolchataya gorlis - Kumri	+
38	<i>Streptopelia orientalis</i> - Bolshaya gorlisa - Tog' g'urragi	+
39	<i>Sturnus vulgaris</i> - Обыкновенный skvores - Chug'urchik	+
40	<i>Acridotheres tristis</i> – Mayna - Mayna	+
41	<i>Pica pica</i> – Soroka - Zag'izg'on	+
42	<i>Corvus monedula</i> – Galka - Zag'cha	+
43	<i>Corvus frugilegus</i> – Grach - Go'ng qarg'a	+
44	<i>Corvus corone</i> - Chernaya vorona - Qora qarg'a	+
45	<i>Corvus cornix</i> - Seraya vorona - Ola qarg'a	+

O'zbekistonda rasman ovlashga ruxsat etilgan ovlanadigan qushlarning Buxoro viloyatida uchrashini aniqlash uchun olib borilgan ko'p yillik va mavsumiy kuzatishlarimiz natijasida 45 turdagi ovlanadigan qushlarning 42 turining Buxoro viloyatida uchrashi aniqlandi. Bu Buxoro viloyati suvliklarining qushlarning migratsiya yo'lida joylashganligi hamda Amudaryo va uning qirg'oqlari bo'ylab cho'zilgan past tekisliklar qushlarning yashash manzili sifatida xizmat qilishidan dalolat beradi.

NATIJA VA MUHOKAMA

O'zbekistonda ovlashga ruxsat etilgan qushlarlar sinfi vakillari sistematiik jihatdan sinf, turkum, oila va turlar kesimida sistematiik jihatdan tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida O'zbekistonda ovlashga ruxsat etilgan qushlar sinfining 8 ta turkum, 12 ta oila va 45 tur vakillari aniqlandi.

O'zbekistonda ovlanadigan qushlarning sistematiik tahlili



1 rasm. O'zbekistonda ovlashga ruxsat etilgan qushlarlar sinfi vakillari sistematiik tahlilining diagrammada ko'rinishi

O'zbekistonda rasman ovlashga ruxsat etilgan ovlanadigan qushlarning Buxoro viloyatida uchrashi xususiyatlari o'rganilganda ularning 45 turga 42 turi viloyat tabiatida uchrashi aniqlandi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Buxoro, Navoiy, Xorazm va Qoraqalpoq tashkilotlaridagi fauna va flora bir biriga juda yaqin va o'xshashliklardan dalolat beradi. O'zbekistonning cho'l zonasida

joylashgan ovchilik xo'jaliklarida ovlanadigan hayvonlarning son dinamikasi va ovlanish hajmi xo'jaliklarning joylashgan joyi, ov xo'jaligini tashkil etilishi va uni yuritilishi, hayvonlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish bo'yicha nazoratning yo'lga qo'yilganligi, aholining ekologik ongi va madaniyati bilan bog'liq. Ovchilik xo'jaliklarida hayvonlarning tegishli ruxsatnomalar asosida ovlanishini, ovlanadigan asosiy hayvon turlarining ovchilik xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini hisobga olganda, kelgusida ovchilik xo'jaliklari va umuman viloyatlardagi suv havzalarida hayvonlarni muhofaza qilish chora-tadbirlarini yanada takomillashtirish zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Жуманов М.А. Позвоночные животные Южного Приаралья в условиях антропогенной трансформации среды их обитания.: Автореф. дисс. ...док. биол. наук. – Ташкент, 2017. – 52 с.
2. Аметов М.Б. Антропогенная трансформация фауны птиц Каракалпакстана.: Автореф. дисс. ...канд. биол. наук. – Ташкент, 1998. – 27-34 с.
3. Рахмонов Р.Р. Бухоро вилоятида овланадиган ҳайвон турлари: Фаунаси, экологияси ва барқарор фойдаланилиши. Автореф. дисс....б.ф.ф.д (PhD) – Тошкент. 2020 йил – Б-3-10.
4. Rakhmonov R.R., Rayimov A.R. Structure and distribution of animals in the Bukhara region // Nature of inner asia 2019. – № 2 (11). – P. 65-68.
5. Rakhmonov R.R., Jabborova O.I., Turayev M.M. Species composition and territorial distribution of hunting animals in bukhara region // Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.- № 10 (2020). B. 9-11
6. Raxmonov R R., Shoimova N.B. Buxoro viloyatida noqonuniy ovlanadigan ayrim hayvon turlari haqida yangi ma'lumotlar // Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi, 2023-11/1, B.120-124.